

O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA SPORTCHI LISONIY SHAXSI  
RUHIYATINING IFODALANISHI.

*Ilmiy rahbar: p.h.d. Eshmo‘minov Asqar*

*Boltayev Erali Qudrat o‘g‘li*

*Email: eraliboltayev7@gmailcom*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek badiiy matnlarida shaxs ruhiyati ifodalanishi holatlarining Durдона Xudoyberganova keltirib o‘tgan tasnifiga asoslanilgan. Durдона Xudoyberganova tasnifiga qo‘shilgan holda, ularning har biriga sportchilarning ruhiy holati tasviri to‘g‘ri keladigan badiiy parchalar olindi va tasniflab chiqildi. Bundan tashqari, o‘zinning taklifim ham qo‘shimcha tarzda kiritilgan. Lisoniy shaxs tushunchasiga psixolingvistik jihatdan yondashilgan.

**Kalit so‘zlar:** personaj, shaxs ruhiy holati, tabiat tasviri, jismoniy xatti – harakat, lisoniy shaxs, lingvistik ong, badiiy matn, semantik daraja.

Bugungi kunda lisoniy shaxs atamasi turlicha sharhlanadi. Bu atama ostida asosan, tilni tashuvchi, ya’ni nutqiy qobiliyatga ega bo‘lgan, shunga ko‘ra, nutqiy shaxs hisoblanuvchi inson tushuniladi. Shuningdek, atama o‘zida tildan muloqot vositasi tariqasida foydalanuvchi inson verbal xatti-harakatlari xususiyatlarining majmuini ham ifoda etadi. Qolaversa, lisoniy shaxs deganda, leksik sistemada bazaviy, muayyan tilni tashuvchining milliy-madaniy prototipi tushuniladi.<sup>1</sup> Shunday prototip holati sportchilar nutqida ham namoyon bo‘ladi.

Yu.N. Karaulov badiiy matn asosida lisoniy shaxsning darajali modelini ishlab chiqdi. Tilshunoslik shaxsi uchta tarkibiy darajaga ega. Birinchi daraja og‘zaki - semantik (semantik- o‘zgarmas), oddiy tilni bilish darajasini aks ettiradi. Ikkinchi daraja kognitivdir, bu yerda jamiyat (lisoniy shaxs) ga xos bo‘lgan tegishli bilim va g‘oyalarni realizatsiya qilish va aniqlash hamda jamoaviy yoki individual bilim makonini yaratish nazarda tutiladi. Ushbu daraja shaxs dunyosining lingvistik

<sup>1</sup> .Usmonov F. Til va tafakkur munosabati va tilshunoslikda Antroposentrizm tamoyili xususida.

modeli, uning tezaurusi va madaniyatini aks ettirishni nazarda tutadi. Uchinchisi - eng yuqori daraja – amaliy hodisa.<sup>2</sup>Bunda til hodisalaridan tilishunoslik qoidalari asosida foydalana olish imkoniyati nazarda tutiladi. Sportchilar ham bu uch darajadan qaysidir toifasiga mansub bo‘lishi o‘zlarining bilim va malakalariga bog‘liq.

Yu.N.Karaulova ta’rifiga ko‘ra, lingvistik shaxs “ bu nutq asarlari (matnlari)ning yaratilishi va idrok etilishini belgilaydigan inson qobiliyatlari va xususiyatlarining majmuidir.<sup>3</sup> Sportchilarda ham nutq yaratish va uni idrok etish qobiliyati va xususiyati mavjudligini inobatga olib, ularni to‘laqonli lisoniy shaxs sifatida tahlilga oldik. Bundan tashqari ular ham nutq jarayonida o‘zlarining ruhiy holatidan kelib chiqib, lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalanishiga e’tibor qaratdik.

Lisoniy shaxsni psixologiya va psixolingvistika fanlari nuqtai nazaridan o‘rganishda lingvistik ongning aqliy tarkibiy qismiga e’tibor qaratiladi. Lingvistik ong ikki mohiyatda namoyon bo‘ladi: nomoddiy tabiatning ruhiy holati va og‘zaki yoki yozma nutqda ifodalangan moddiy hodisa sifatida. Mana shu omillarni hisobga olib, sportchi ruhiyatini psixolingvistik yondashuv asosida tahlil qildik.

Lisoniy shaxs tilda aks ettirilgan madaniyat makonida, turli darajadagi ong shakllarida, xulq-atvor stereotiplarida, moddiy madaniyat obyektlarida mavjud. Lisoniy shaxs tilga ichki munosabat va shaxsiy-lisoniy ma’nolarni hosil qilish orqali shakllanadi.

Lisoniy shaxsning o‘ziga xosligi subyektiv voqelikning asosiy elementi bo‘lib, u ijtimoiy jarayonlar bilan shakllanadi va ijtimoiy munosabatlar tomonidan qo‘llab- quvvatlanadi. Bunda monolog va dialoglar juda muhim birliklar hisoblanadi.

Xulq-atvor me’yorlari ham prototipik hodisadir. Sportchilar nutqida ham prototipik jihatlar ya’ni sportchilarga xos jihatlar ko‘p. O‘zbek adabiyotidagi

---

<sup>2</sup> .Karaulova Yu.N. Rus tili va lingvistik shaxs.Moskva:Nauka,1987.264.p

<sup>3</sup>..Karaulova Yu.N. Rus tili va lingvistik shaxs.Moskva:Nauka,1987.273.p

ko'pgina badiiy asarlarda esa, milliy sport turlari bilan bog'liq lavhalar berilgan va milliy sportchi prototipi aks ettirilgan. Biz ilmiy ishimizda, aynan, sportchilarga xos ruhiy jarayonlar prototipini berishga harakat qildik.

Hissiyot ifodasi berilgan mikromatnlar badiiy asarlarda turli usullar vositasida yuzaga keltiriladi. Durdona Xudoyberganova tasnifiga ko'ra, ularning asosiylari quyidagilar:

1. Asar personajining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi<sup>4</sup>:  
Bo'ri polvon: Odamlar, shunchalik izzat qildilaring, qulluq,- dedi, endi biz qarib qoldik... E'tibordan manunlik va minnaddorlik hissi ifodalangan.

- O'ngimga kelib edi-yu, tag'in Bo'ri polvonning biron yeri lat yemasin dedim-da!  
Bunda qahramon nutqidan o'z natijasidan norozilik va o'zini oqlash, raqibni pastga urish holati tasvirlangan.

-Ukkag'ar Hotam polvon-e. -Sizga o'xshaganlarni manavi chinachog'im bilan yiqitaman, ha. Bu dialogik o'rinda Bo'ri polvonning nutqidan uning g'azablanishi va hayratlanishi ifoda etilgan.

Bo'ri polvon: Olish- san'at, ha! Minglab odam uyqudan qolib, senga qarab o'tiribdi!  
Shunday ekan, san'atingni ko'rsat-da, bachchag'ar! Bu gapdan polvonlarga berilayotgan dakkini his qilishimiz mumkin.

-Qizbet! Itdan bo'lgan qurbonlikka yaramas! Qarab tur, sen qizbetni davraga qaytib chiqmaydigan qilmasam ko'rasan. Bu o'rinda raqibidan norozilik va g'azablanish holati aks etgan. [Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi]

Qora polvon: "ih, yeding, bola". Bu gapda Qora polvon mag'lubiyat va mensimaslik ruhini nutqida aks ettirgan.

-Agar o'rta qo'sh pichoq oralamaganda, o'lay agar, yiqilib ham berardim. Nomardlik qildingiz. Endi mardlikni sizga o'rgatib qo'yganim bo'lsin. O'z raqibidan xafalik va g'azablanish, nafratlanish ruhiyati ifodalangan.

---

<sup>4</sup> Xudoyberganova Durdona. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent: Fan. 2013. 65-bet.

Esh polvon: Nomard, yeding-a! Bunda ginadorlik va alam Esh polvon gapidan anglashilyapti.. Ali polvon: -Battar bo'l. Harifining kuchini chamalamay bel olishadigan polvonning ko'radigan kuni shu. Bunda suxbatdoshining harakatidan achchiqlanish ruhi ifodalangan. [Said Ahmad. Ufq.]

Mingboshi dag'-dag'a qilib berdi:

– Yo men bilan bel olishga bahonangizmi bu? Nutqi orqali norozilik va g'azabini aks ettirgan.

Barot polvon achitib gapirdi:

-Zarur bo'lsa, bahona qidirib o'tirmasdan-la, kurashaveramiz, mingboshi, - dedi u. –Lekigin gap u emas. Shuncha yildan beri kurashib, polvon degan dovrug'ingiz bor-u, kurash taomilini bilmaganingiz qiziq. Sizing kurashingizda bo'lsa bilmadim, lekin o'zbeklarning kurashida chalish degan narsa yo'q. Bundaqa noma'qulchilikni hech kim qilmaydiyam, halol kurashaman degan ota o'g'li chalmaydiyam! Kuchingiz yetsa, halol ko'tarib, halol uring, taqsir, ha! Sizing yiqitganingiz hisob emas! Bu nutqda Belbog'li kurashdagi polvonning oriyat va adolatga sodiqligi tasvirlangan. G'irrom va qoida buzishlarga nisbatan g'azab va noroziligi aks etgan.

–Yur o'rta, izzatini bilmagan! Bunda qahramondagi takabburlik va g'azablanishni his etishimiz mumkin.

-Qani, fotixa beringlar. Xalqqa achchiq qilish nutq ohangida kuzatiladi.

[Mirzakalon Ismoilov Farg'ona tong otguncha]

Hamida momo: Sigirday bo'may o'lay men. Jasadimni eplayolmay o'zim yiqilib tushdim. O'z harakatlaridan norozilik kayfiyati va o'zini koyish namoyon bo'lgan.[Normurod Norqobilov.Kurash]

Najim polvon Chelaklik polvonlarga zarda qildi:

E, o'rgildim gerdayib yurishlaringdan. Bizning yoshligimizda chelakliklar hamma sovrinlarga egalik qilishardi. Bu qanday sharmandalik?! O'z ovulingda yurak yutib davraga chiqolmasang. Polvon buvaning norozilik kayfiyati, jahli chiqqan holati gaplarida zohir bo'lgan.

U nevarasi Xoshim polvonga yuzlandi:

Bizning urug‘dan bo‘lsang, davraga tush. Zo‘r bo‘lsa, yiqitar. Yiqilganni yer ko‘taradi. Boshqa yerlik polvonlarga talabgor bo‘lmasanglar, Chelakning bolasi emassanlar! Bu matnda g‘azabdan junbushga kelish holati aks etgan.

Sardor polvon: “Jabbor deganlari kim o‘zi? Buncha asabimga tegishmasa. Manavi Xoshim tirriqning pichingi hammasidan oshib tushdi”. Bu ichki monologik nutq shaklida hayratlanish, jahldorlik ruhi, ikkilanish holati ifoda etilgan.[Abdulla Ayizov Polvon yig‘lagan tun]

Sardor polvon: Bilib qo‘y! Senga o‘xshab davrani xarom qilganim yo‘q! Jomakorimni, belbog‘imni, bosib yurgan tuprog‘imni xarom qilganim yo‘q!.. Yo, pirim! Bu nutqdan o‘ziga ishonch, raqibning qoidabuzarligiga nafrat ruhi anglashilgan. [Abdulla Ayizov Polvon yig‘lagan tun]

Ko‘nglimdan, o‘lgan shunday o‘lar ekan-da, degan gap o‘tdi. Yuragim tovonimga tushib ketganday bo‘ldi. Hushim boshimdan uchdi. Bu nutqdan chavandozning inkonsizlik holati, qo‘rquv iskanjasidagi ruhini his etamiz, ammo shu bilan birga insonga xos hayotsevarlik, umid qilish tuyg‘usini ham aynan mana shu o‘rinda tuyishimiz mumkin.

Xudoga shukr, lat yemadi. Bo‘ldi, endi Tarlonni uloqqa solmayman. Mammunlik va xotirjamlik ruhi aks etgan.

Jiyron chavandozi: Ay bakovul, mo‘yloving bo‘lgan bilan insofing yo‘q ekan!-dedi. -Qara, Tarlon o‘zini qayerdan tashladi! Ot sendan mendan qo‘rqqanidan tashlamadi, yo‘q, odamzotga fidoyiligidan tashladi! Bundayin botir ot boshidan zar sochsang-da, haqing ketmaydi! Ber haqini! Bunda jasoratdan mammunlik va uni munosib baholash kerakligi aytib o‘tilgan. Bakovul qaroridan norozilik aks etgan.

-Bersang berding, bermasang, shu Tarlonga uyimdan bir qo‘y olib kelib beraman! Ayt,bo‘larini ayt! Qat‘iyat va jahl chiqish holati tasvirlangan.

Ziyodulla chavandoz: Endi qaysi yuz bilan elga ro‘para bo‘lamiz!-dedim. Bu nutqda hijolat, uyalish, andisha ruhi ifodalangan. Yigirmaday chavandoz-a! Olganimiz bor -yo‘g‘i bitta serka bo‘lsa! Shuniyam tilab oldik! O‘z natijasidan qoniqmaslik ifoda etilgan. Hijolatli vaziyatda qolish aks etgan.

Sho'rchidan Fayzulla chavandoz keldi. Vo ukkag'ar ana chavandoz! Besh ketdim!  
Bunda biror kishining harakatlaridan mamnunlik, uning xususiyatlariga qoyil qolish,  
havas qilish ruhi ifodalangan.

Hamdam chavandoz: -Ay bakavul, shunday haq olib yegandan ko'ra ko'chadan...  
terib yesalaring bo'lmaydimi? Bir mo'min banda o'zi yemay, o'zi ichmay yig'indi,  
elga to'y berdi. O'yla-da, imonsiz! Shu haromliging o'zingga, o'zingga bo'lmasa,  
bola-chaqangga uradi, mana ko'rasan! Bu nutqda nomardlikdan achchiqlanish,  
haromdan hazar qilish va unga boshqalarni ham chorlash ruhi tasvirlangan.

Men jerkib berdim:

-Hech qayoqqa ketmayman, ko'pkari oxirigacha chopaman! Alam, kurashish  
ishtiyoqi tasvirlangan. [Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom]

1. Pesonajning ruhiy holati asar muallifi nutqi vositasida beriladi. Bunda  
muallif quyidagi uslullardan foyadalanadi<sup>5</sup>:

a) Personajning ruhiy holatini bevosita bayon qiladi<sup>6</sup>:

Bo'ri polvonning ko'ngli uyushib-uyushib ketdi. Nasim polvonga juda-juda  
rahmi keldi. Bo'ri polvonning madori quridi, ko'zi tindi.

Bo'ri polvon ruhida iliqlik paydo bo'ldi. Bunda rahmdillik ruhi  
tasvirlanmoqda.

Bo'ri polvon sabr- toqati toq bo'ldi! Bo'ri polvonni polvonlik qoni qo'zg'adi!  
Bunda polvonning jahldorlik holati tasvirlangan. ... Buni kutmagan bakovul  
dovdirab qoldi. Bakovul holatini ifodalab o'tilgan.

Boyagi dag'-dag'alar qayoqda! Bunda vaziyatdan xavotirga tushish,  
ehtiyotkorlik ifoda etilgan. Bo'ri polvon darg'azab bo'lib davraga kirdi. Bo'ri  
polvon holati muallif nutqi orqai berilgan.

Bo'ri polvon-da, Abil tentak-da asabiylasha boshladi. Kurash jarayonidagi  
teng kuchli sportchilar ruhiyati aks etgan.

[Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi]

---

<sup>5</sup>. Xudoyberganova Durdona. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent: Fan. 2013. 66-bet.

<sup>6</sup>. Xudoyberganova Durdona. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent: Fan. 2013. 66-bet.

Azizxon g'alaba nash'asini surar edi. G'alabadan mamnunlik ruhi aks etgan.[Said Ahmad.Ufq]

Shayton polvonga dam bermasdan, mingboshi bel oldi. U shu vaqtgacha o'zida ko'rilmagan g'alati bir hujumkorlik, tezlik bilan harifini surib ketdi. G'azab kuchga kuch qo'shadi, deydilar. Balki do'stining alami g'azabga keltirgandir? Balki tomirida boshqa alamning isyoni bordir? G'azablanish holati ifodalangan. [Mirzakalon Ismoilov.Farg'ona tong otguncha]

Polvonning g'azabi qaynadi. Isyonkorlik darajasidagi asabiylashish tasvirlangan.

Bakovul: Qani, polvonlar, davra sovib qoldi. Dam olish ham shunchalik-da. Xoshim esankirab qoldi. Bellashmay desa, uyat. Ertaga ovuldoshlarining yuziga qanday qilib qaraydi? Bellashay desa, Sardor polvon shu topda uni majaqlab tashlashdan ham toymaydi. Xoshim polvondagi ikkilanish holati, oriyat masalasi va hadik ruhi muallif tomonidan bayon qilingan.[Abdulla Ayizov.Polvon yig'lagan tun]

b) Personajning jismoniy xatti- harakatlarini tasvirlash orqali uning ruhiy holatiga ishora qilinadi<sup>7</sup>:

c) Bo'ri polvon davra aylandi. Alp-alp odimlar otdi! Nasim-da davraladi. Bo'ri polvon izidan yurdi. Bunda qahramonning qiziqqonligi va g'azabi tasvirlangan.

Yelkalar qisq bo'ldi, qadamlar omonat bo'ldi... Bunda vaziyatdan xavotirga tushish, ehtiyotkorlik ifoda etilgan.[Tog'ay Murod.Yulduzlar mangu yonadi] Ohista-ohista o'rnidan turdi. Bosh egib- bosh egib davradan chiqdi. Mag'lubiyat alami, hijolatlik holati tasvirlangan.

Bo'ri polvon hamrohlari qo'lini zarda bilan siltab – siltab tashladi. Jizzakilik holati tasvirlangan.

Choponiga cho'nqayib o'tirdi. Tizzalarini quchoqladi. Peshonasini bilaklari ustiga qo'ydi... Ho'ng-ho'ng yig'lab qo'ya berdi! Hamrohlariga javdirab-javdirab

---

<sup>7</sup> Xudoyberganova Durdona.Matnning antroposentrik tadqiqi.Toshkent:Fan.2013.67-bet.

qaradi. Barcha narsadan voz kechish, o'z holiga achinish ruhi ifodalangan. [Tog'ay Murod.Yulduzlar mangu yonadi.]

Zarb!.. zarb!.. Darvozabon tosh kabi qotdi. Gol o'tkazib qo'ygan darvozabonning alamli holati tasvirlangan.

Hamon karaxtlikda silkinadi to'r

Hamon darvozabon yotibdi behol!

Himoyachi menga g'ijinib boqar

Mag'lub g'azablarni ko'rishdan bezdim! Himoyachiga xos jahl, alam ruhi ifodalangan.

Trener g'ijinib ushlar ko'ksini... Murabbiyning bu holatdan alami va bu holning sog'ligiga ta'siri tasvirlangan

Yerga yiqilaman yana o'ksinib... Mag'lubiyat alami tasvirlab berilgan.

Trener qo'l siltar... Umidsizlik, norozilik holati ifodalangan. U haq, albatta [Usmon Azim.Garrincha.Saylanma]

Qora polvon hech kimga qaramay davradan etak silkib chiqib ketdi. Alam va jahldorlik tasvirlangan.[Tog'ay Murod.Yulduzlar mangu yonadi]

Yog'och polvon qichqirayotganlarga masxaraomuz iljayar, ...ko'zini qisib qo'yardi. Ko'kragini kerib, qo'llarining muskullarini ko'z-ko'z qilardi. Bunda o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik holati tasvirlangan.[Said Ahmad.Ufq]

Qodirning qo'lidan qiyiq chiqdi, o'zi yerda sulayib qoldi. Mag'lubiyat alami ifodalangan.

Mingboshi uning belini juda qattiq qisib yubordi, barmoqlari Shaytonning qovurg'alari tagiga qoqilgan ponadek kirib bordi. Asabiylik, jahldorlik holati tasvirlangan. Ko'zlari ola-kula bo'ldi. Xavotirlanish holati berilgan.

Mingboshi o'zining ostiga tushgan Shaytonni belidan tortib turg'izdi-da, odamlarga it qarash qilib, serrayib turib oldi. Asabiylashish aks etgan.

Mingboshining oyoqlari titrar edi. Xavotirlanish tasvirlangan.[Mirzakalon Ismoiliiy.Farg'ona tong otguncha]



Qo‘rqib ketgan momo beixtiyor ko‘ksiga tuflarkan, o‘g‘li va dugonasiga og‘rinib nazar tashlaydi. Bu o‘rinda nazar tashlashdagi norozilik, nafrat, qahr ifodalari tasvirlangan.

Ha og‘riqdan qizargan, bo‘zargan, tishlari orasidan ingrashgandi-yu, lekin g‘irrom olishding-ga nomard demagan. Charchagan holat tasvirlangan. Shomurod polvon gunohkorona iljayib yo‘lini to‘sdi. Bunda erkalanish, mehr qozonishga intilish ruhi aks etgan. O‘g‘lining vujudi taranglashayotganini sezarkan, saldan so‘ng jiddiy qarshilikka o‘tganini sezadi. Bunda kurashishga tayyorlanish ifodalangan. [Normurod Norqobilov Kurash]

Qodirbek mergan barcha kelganlar bilan ham iliq ko‘rishib chiqdi-da, atrofga alang-jalang boqib, biqinidan shoshilib o‘tayotgan yigitni to‘xtatdi. Bunda bezovtalik tasvirlangan.

Sardor polvonning qosh-qabog‘i osildi-qoldi. Xafalik ruhi ifodalangan.

Polvon bir silkinib o‘rnidan turdi. Jarliklar yuziga tabassum qalqidi. Bir-biriga mamnun-masrur ko‘z tashlab olishdi. Sardor davraga tushib tovoqqa qo‘l tegizdi. Udumga ko‘ra, tovoq ustiga qo‘yilgan patirdan sindirib, og‘ziga soldi. Bu o‘rinda kurashishga tayyorlik, o‘ziga ishonch ruhi ifodalangan. Najim polvon betoqatlangancha davraga qadam bosdi. Bakovulni imladi. Biror ishga ahd qilganini anglash mumkin.

Nihoyat Sardor polvon davraga tushdi. O‘z jamoasi tomonga qarab tavof qildi va odamlardan fotixa oldi. Ko‘zlarini yerdan uzmay, qo‘llarini kindigiga bosganicha sekin davra aylandi. Bunda o‘ziga ishonganlardan madad so‘rash, o‘zini kamtar tutish, bosiqlik ruhi ifodalangan.

Xoshim polvon jomakorining u yoq, bu yog‘ini to‘g‘rilagan bo‘lib, g‘oz yurish bilan davraga qadam bosdi. O‘ziga bino qo‘yish, kekkayish ruhi tasvirlangan.

Xoshim polvon tura solib, raqibining yoqasiga yopishdi. Qattiq g‘azablanish ruhi aks etgan.

Ko‘zlari kosasidan chiqqudek turgan Xoshim polvon orqaga burilar ekan. G‘azab va nafrat ruhi ifodasi berilgan.

Sardor polvonning peshonasida qaynab chiqayotgandek terlar jimirladi. Xorg'inlik ruhi aks etgan.

Sardor polvon labini tishlagancha mushtlarini qisdi. G'azablanish holati ifodalangan.[Abdulla Ayizov. Polvon yig'lagan tun.]

Ishqibozlar,ana, changallar boshin-

Biri shlyapasin burdalab otar! Mag'lubiyatning muhlislarga ta'siri tasvirlangan. [Usmon Azim.Garrincha.Saylanma]

d) Tabiat tasviri orqali personajning ruhiy holatiga ishora qilinadi<sup>8</sup>:

Mardona o'yinlarda yorug' yulduz bo'lsa! Yorug' yulduz hamisha davralarga ko'rk beradi, salobat beradi! Tevarakdagi rangsiz yulduzlar, mitti yulduzlar xiraligini bildirmaydi! Bunda tabiatni tasvirlash orqali umid ya'ni biror qahramonga umid bog'lash ruhiy ishonchga sabab bo'lishi ifoda etilgan.

Yam-yashil maydonda chiqar quyoshim!

Yam-yashil maydonda quyoshim botar! Bunda stadion tasviri orqali g'alaba va mag'lubiyat yonma-yonligi va muvaffaqiyatga umid ruhi ifodalangan.

Garrincha! Polisning yondi ko'zlari

Tun bo'yi mahbuslar tinchini buzdi:

Qamoq devoriga to'qmog'i bilan

Mening fintlarimning rasmini chizdi. Polis ko'zlari chiroqlar yonishi tasviri. Xalqning o'z dahosiga ishonchi tasvirlangan. [Usmon Azim.Garrincha.Saylanma]

Xalq ko'klamda suv kirgan sho'x daryoday hamon shovillar edi. Bunda g'alabadan masrurlik ruhiyati ifodalangan. [Mirzakalon Ismoiliiy.Farg'ona tong otguncha]

Qiziq, qishloq ustida burgut aylanmasdi, nechuk bugun paydo bo'lib qoldi? Xuddi o'g'lining izidan kelgandek! Tag'in bu To'ra polvonning arvohi bo'lmasin! Bunda burgutga xos mag'rurlik va o'z ozuqasini mehnat bilan qo'lga kiritish ruhiga ishora qilingan. O'g'lidagi g'irromlik burgutday viqorli onaga ma'qul bo'lmaganligi va undan ota ruhi ham norozi bo'lishi mumkinligi tasvirlangan.

---

<sup>8</sup>. Xudoyberganova Durdona.Matnning antroposentrik tadqiqi.Toshkent:Fan.2013.67-bet.

Keyin tag'in ko'kka qaraydi. Biroq endi burgut ko'rinmas, terak shoxlariga tegay-tegay deb o'laksaxo'r bir qush qanot qoqardi. Bu o'rinda o'g'lidagi g'irromga moyillikni o'laksaxo'r kabi o'lik hayvonlar bilan oziqlanishdek jirkanchli ekanligini anglatgan.

Yiqitdi! Yiqitdi! Hamida polvon Shomurod polvonni yiqitdi!  
Qo'liga qayta kuchli og'riq kirganini sezgan momo o'g'lidan uzoqlasharkan, ko'kda boyagi burgutning paydo bo'lganini ilg'aydi. O'laksaxo'r qushning izi o'chgan, burgutning parvozi esa osmonga juda-juda yarashib tushgan edi... Bunda nomard o'g'ilni yiqitgan momoning ishi burgutga xos mag'rurlanishga sabab bo'la olishiga ishora mavjud.[Normurod Norqobilov Kurash]

Tun tevarakni tobora o'z qora quchog'iga tortib borardi. Davradan ko'tarilayotgan chang-g'ubordan hatto yulduzlar ham ko'rinmay qoldi. Bunda tabiat tasviri va qahramon ruhiy holatidagi uyg'unlik tasvirlangan.

Borliqni qoplay boshlagan tun pardasining bir parchasi go'yo Sardor polvonning ko'krak qafasiga tushgandek edi. Tun ifodasi orqali Sardor polvon ruhidagi chalkashliklar tasvirlangan.[Abdulla Ayizov. Polvon yig'lagan tun]

Mening fikrimcha, bundan tashqari boshqa personajlar nutqi va holati orqali ham qahramon ruhiy holatiga ishora qilinadi:

-Tinchlikmi, bolam? – Nega ranging o'chib ketdi? Bunda ona nutqi orqali farzand ruhidagi qo'rquv, xavotir ruhi anglanmoqda. [Quvondiq Siddiq. Futbolga tikilgan bosh]

-E, bo'ldi-ye, charchab qoldilaringiz! Polvonlar holati ifodasi boshqalar nutqidan anglashilmoqda. Bunda polvonlarnng charchoq bosgan holati boshqalar nutqi orqali anglanmoqda.

Bakovul barini ko'rib turdi, barini eshitib turdi. Ammo yelkasini qisdi, labini burdi, talmovsirab turib oldi. Bu parchada Ziyodulla chavandoz nutqi orqali bakovulga xos bo'lgan ayyorlik, fikrga qo'shilmaslik ya'ni qarshiligini namoyon etgan ruh ifodalangan.

Soqoldor chavandozda avzoy yomon, uyidan qo‘y olib kelib beradi. Bu gapda chavandoz ruhiy holatini Ziyodulla chavandoz nutqi orqali his etmoqdamiz. [Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom.]

Mirak Changiy “Hay-hay, yig‘ladi-ya,...

O‘lay agar yig‘ladi. Bunda Mirak Changiy gapi orqali Ahmad Piri ruhiyatini angladik.

Darvesh Muhammad Pahlavon Muhammad nega g‘alabadan quvonmadi degan ma‘noda: U ochiq chehra bilan oq fotiha bermadimi? Keyin esa... sevinish nari tursin, to‘nini teskari kiyib oldi. degan o‘y surishida Pahlavon Muhammad ruhiyati Darvesh Muhammad nutqidan anglashilmoqda.[Asad Dilmurod. Pahlavon Muhammad]

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek badiiy matnlari hali psixolingvistik jihatdan ko‘p o‘rganilishga muhtoj. Psixolingvistik tahlillarni amalga oshirish uchun yetarli ilmiy manbaalar topilishi muammo. Biz badiiy asarlarda sportchilar ruhiy holatini psixolingvistik jihatdan o‘rganish orqali sportchilarga xos lisoniy xususiyatlarni, ruhiy vaziyatlarni chuqurroq angladik. Psixolingvistikada lisoniy shaxs tushunchasi alohida shaxslarning ruhiy va lisoniy qobiliyatlarini anglatuvchi birlik ekan degan xulosa qildik. Alohida shaxslar, o‘z navbatida, o‘zlari mansub bo‘lgan ijtimoiy qatlam xususiyatlarini ifodalashini tushundik. Shu asosda biror ijtimoiy guruhning lisoniy tipini aniqlashda alohida shaxslarni o‘rganish juda muhim deyishimiz mumkin. Sportchilar lisoniy tipini aniqlash uchun biz o‘zbek tilida yaratilgan turli janrlarga xos, turli davrlarda yaratilgan badiiy asarlardagi sportchilar tasvirini tahlil qilishga harakat qildik. Bu jarayonda sportchilar so‘zlashuviga xos leksik-semantik birliklar, noverbal harakatlarning umumiy va xususiy tomonlarini o‘rgandik. Inson qo‘llaydigan so‘zlar uning ijtimoiy mansubligi, milliy mansubligi, u muloqatda bo‘luvchi ijtimoiy muhit va shaxs ruhiy holati bilan uzviy bog‘liq ekanligining yana bir bor guvohi bo‘ldik.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Usmonov F. Til va tafakkur munosabati va tilshunoslikda Antroposentrizm tamoyili xususida. Toshkent: 1998.
2. Karaulova Yu.N. Rus tili va lingvistik shaxs. Moskva: Nauka, 1987. 264.p
3. Karaulova Yu.N. Rus tili va lingvistik shaxs. Moskva: Nauka, 1987. 273.p
4. Xudoyberganova Durдона. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent: Fan, 2013.
5. Said Ahmad. Ufq. Toshkent: G'afur G'ulom, 2018.
6. Mirzakalon Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. Toshkent: Sharq, 2010.
7. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. Toshkent: Sharq, 1994.
8. Usmon Azim. Saylanma. Toshkent. Sharq, 1995.
9. Quvondiq Siddiq. Futbolga tikilgan bosh. Toshkent. O'zbekiston, 2011.
10. Abdulla Ayizov. Polvon yig'lagan tun. Yoshlik jurnali. 2011-yil 4-son.
11. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com).
12. Normurod Norqobilov. Kurash. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com).